

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA ORTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**Xorijiy tillar fakulteti**  
**Ingliz tilshunosligi kafedrası**

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakultet dekani

\_\_\_\_\_ M.M Jo'rayeva

<<\_\_\_\_\_>> \_\_\_\_\_

**4-kurs talabasi Artikova Gulnoraning**

**“Ж.А.Гуддоннинг “Адабиётшунослик терминлари ва  
адабиётшунослик назарияси” (“Literary terms and Literary theory”)**

**луғатидаги терминларнинг таркибий тузилиши mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**5120100-Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi**

Ilmiy rahbar: M.U.Saidova

Taqrizchi: M.M.Tursunov

**Buxoro-2019**

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                            |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>KIRISH</b> .....                                                                                                                                                        | 3  |
| <b>I BOB. TERMINOLOGIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI</b>                                                                                                               |    |
| 1.1. Termin, terminologiya va lug'atshunoslik haqida mulohazalar.....                                                                                                      | 8  |
| 1.2. Adabiyotshunoslik terminlarining o'rganilish tarixi.....                                                                                                              | 15 |
| <b>II BOB. J.A. KUDDONNING “ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARI VA ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI” IZOHLI LUG’ATIDA QO’LLANILGAN ADABIY TERMINLARNING TARKIBIY TUZILISHI.</b>       |    |
| 2.1. “Adabiyotshunoslik terminlari va adabiyotshunoslik nazariyasi” izohli lug’atining yaratilish tarixi.....                                                              | 24 |
| 2.2. J.A. Kuddonning “Adabiyotshunoslik terminlari va adabiyotshunoslik nazariyasi” izohli lug’atida qo’llanilgan adabiy terminlarning tarkibiy tuzilishining tahlili..... | 30 |
| <b>XULOSA</b> .....                                                                                                                                                        | 40 |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati</b> .....                                                                                                                            | 43 |

## KIRISH

*Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor!*  
*Barchamizga ayonki, XXI asr intellectual salohiyat, tafakkur va*  
*ma'naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish*  
*bilan birga, biz ilgari bilmagan, duch kelmagan keskin muammolarni*  
*ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda*  
*yozuvchining bashariyatning ertangi kunini o'ylab, odamlarni ezgulikka,*  
*insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan*  
*haroratli so'zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda".<sup>1</sup>*

(Islom Karimov)

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" nomli asarida "Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 32foizini, ya'ni 10 millionnini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarimiz tashkil etadi.

Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida butun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtlibo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz",<sup>2</sup>- deya ta'kidlab o'tganlar.

Darhaqiqat, buning isboti sifatida muhtaram prezidentimizning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida

---

<sup>1</sup>I.A Karimov, "Vatanimizni bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz", Toshkent, 2009, 247-b.

<sup>2</sup>Sh. M. Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz", Toshkent "O'zbekiston" - 2016.

so'zlagan nutqlarini yoki mamlakatimizda xorijiy tillarni yanada rivojlantirish, maktabgacha ta'lim dargohlari, umumta'lim maktablari, kasb - hunar kollejlari va akademik litseylar, oily ta'lim muassasalari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash, chet tili ta'limi darajasi va sifatini xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etish bo'yicha olib borilayotgan talaygina islohotlarni keltirib o'tish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov 2012-yil 10-dekabrida “Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to'g'risidagi qarori qabul qilingandan so'ng, chet tillarni, ayniqsa, ingliz tilini o'rganish davr talabiga aylandi. Adabiyot esa har qanday tilni o'rganishda ko'makdosh bo'la oladi va bir millat yoxud xalq adabiyotining butun insoniyat va uning tarixi uchun ahamiyati juda ulkan. Adabiyot taraqqiyot topgan har bir xalqning yutuqlari tezda butun jahon miqyosiga chiqadi, hamma mamlakatlar va xalqlar tomonidan tan olinadi. Alisher Navoiy bunga yorqin misoldir. “Alisher Navoiyning siymosi jahon adabiyotidan ajralib qolgan emas, - deb yozgan edi mashhur rus olimi V.M Jirmunskiy, - o'zbek adabiyotining buyuk asoschisining ijodi o'zinng g'arbiy hamfikrlari – shoirlarning va mutafakkirlarning g'oyalari bilan bevosita hamohangdir”.<sup>3</sup>

Yosh avlodda o'z ona tilini mukammal bilgan holda yana birorta chet tilni, xususan, ingliz tilini chuqur o'rganish, bu tilda bimalol muloqot qila olish ko'nikma va malakalarini hosil qilishda adabiyotdan keng foydalanish, shuningdek, yetuk mutaxasislarni tayyorlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlar olib borish, olingan natijalarni ommalashtirish zaruriyati mazkur tadqiqot ishlarini amalga oshirishga turtki bo'ldi.

Milliy tilimiz davlat maqomiga ko'tarilib, e'zozlanayotgan bir paytda taraqqiyotimizning poydevori, garovi bo'lmish xorijiy tillarni o'rganishga katta ahamiyat berildi, xususan, ingliz tiliga. Hozirgi kunda ingliz tilini 1-sinfdan boshlab ta'lim tizimida joriy etilganligi, ingliz tilidagi darsliklarning, ya'ni,

---

<sup>3</sup>T.Boboyev, “Adabiyotshunoslik asoslari”, O'zbekiston, 2002.

takomillashtirilgan nusxalarining bosib chiqarilayotganligi hamda o`rta maxsus va oliy ta`lim muassasalarida maxsus jihozlangan ingliz tili xonalarining yaratilayotganligi, yosh avlodni har tomonlama yetuk mutaxassis bo`lib yetishishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berilayotganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Shuningdek, bugungi kunga kelib, yana bir dolzarb masalaga aylangan mavzu bu – nafaqat o`sib kelayotgan yosh avlodni, balki butun mamlakat aholisini adabiyotga qiziqishini o`stirish, kitobga bo`lgan mehrini oshirish, adabiyot orqali insonni ma`nan yetuk komil inson sifatida tarbiyalashdir.

**Mavzuning dolzarbligi.** Terminologiya, ayniqsa, adabiyotshunoslik terminologiyasi sohasining nazariy asoslarini, ya'ni uning kelib chiqish tarixi hamda mazmun mohiyatini chuqur anglab yetish hozirgi kunning dolzarb vazifasidir.

Shu nuqtai nazardan, mazkur bitiruv malakaviy ishining mavzusi ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, adabiyotshunoslik fanida dunyo bo`ylab asosiy qo`llanma-lug`at bo`lib xizmat qilayotgan J.A. Kuddonning “Adabiyotshunoslik terminlari va adabiyotshunoslik nazariyasi” izohli lug`atidagi terminlarining tarkibiy tuzilishi, ularning ifodalanishi hamda tahlili kabi muammolarini o`rganishga e`tibor qaratilgan. Mazkur qismlarni o`rganishda ham nazariy, ham amaliy jihatdan muayyan bilimlarga ega bo`lish zarur.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.** Ushbu ilmiy ishimizning asosiy maqsadi terminologiya tushunchasining nazariy asoslarini, termin va terminologiya haqidagi turli xil mulohazalarni, adabiyotshunoslik terminlarning o`rganilish tarixini, J.A. Kuddonning hayoti va ijodi bilan tanishish, shuningdek, uning “Adabiyotshunoslik terminlari va adabiyotshunoslik nazariyasi” izohli lug`atidagi adabiyotshunoslik terminlarining tarkibiy tuzilish jihatdan tasnifini o`rganish va tahlil qilish.

**Bitiruv malakaviy ishining o`rganilganlik darajasi va yangiligi.** Termin va terminologiyaning kelib chiqish tarixi, turlari, ularga qo'yilgan me'yoriy talablar,

adabiyotshunoslik terminlari lug'atini yaratish asosida hozirgi paytgacha juda ko'p tadqiqot ishlari olib borilgan, shu jumladan, terminga qo'yiladigan me'yoriy talablar dastlab terminologiya maktabi asoschisi D.S.Lotte tomonidan ishlab chiqilgan, terminga nisbatan funksional yondashuv G.O. Vinokur, V.V. Vinogradov, A.A.Reformatskiy va V.G.Gak kabi olimlarning ishlarida o'rganilgan, H.Homidiy, Sh.Abdullayeva, S.Ibrohimova 1967- yilda "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati"ni ishlab chiqqanlar. Terminologiya mavzularida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan va ularda termin va terminologiya tushunchalariga va kelib chiqish tarixiga har tomonlama tavsif berishgan. Biz esa ushbu bitiruv malakaviy ishimizda J.A. Kuddonning "Adabiyotshunoslik terminlari va adabiyotshunoslik nazariyasi" izohli lug'atidagi terminlarining tarkib jihatdan qay tarzda tuzilganligini aniqlash hamda ularning muammoli tomonlarini topib, ularni tahlil qilish, ushbu terminlarning hali ochilmagan xarakter xususiyatlarini topib ochishga harakat qildik.

**Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti.** J.A. Kuddonning "Adabiyotshunoslik terminlari va adabiyotshunoslik nazariyasi" izohli lug'ati tadqiqotimiz uchun ob'ekt bo'lib xizmat qilsa, bu lug'atda jamlangan atamalar, ularning sintaktik va morfologik vositalari esa predmet bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqotning nazariy-amaliy ahamiyati.** Mazkur ilmiy ishimiz akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari o'quv dasturidagi adabiyot darslarida qo'shimcha material sifatida ham nazariy jihatdan, ham amaliy jihatdan qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, ilmiy ishimizdan o'qituvchilar va magistr talabalar ham qo'llanma sifatida foydalanishi mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy asosi.** Bitiruv malakaviy ishini yozishda bizga J.A Kuddonning "Adabiyotshunoslik atamalari va adabiyotshunoslik nazariyasi" izohli lug'ati, M.H Abrams ning "A Glossary of Literary terms", Y.MSkrebnev muharrirligi ostida chop etilgan "Fundamentals of English Stylistics", Galperinning "Stylistics" asarlari nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi.** Mazkur malakaviy bitiruv ishimiz kirish, ikki bob, to'rt bo'lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida bitiruv malakaviy ishi to'g'risida umumiy ma'lumotlar keltirilgan. Birinchi bobda termin, terminologiya va adabiyotshunoslik terminlarning tarixi va ularning xususiyatlari haqida to'xtalib o'tildi. Ikkinchi bobda esa J.A. Kuddonning hayoti va ijodi, yozuvchining "Adabiyotshunoslik atamaları va adabiyotshunoslik nazariyasi" izohli lug'ati yozilish tarixi hamda bu lug'atdagi atamalarning struktur tahlil ko'rib chiqildi va misollar bilan boyitildi. Xulosa qismida esa bitiruv malakaviy ishi haqida asosiy xulosalar, shuningdek, ish yakunida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirib o'tildi.

## **I BOB. TERMINOLOGIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1 Termin, terminologiya va lug'atshunoslik haqida mulohazalar**

Termin lotincha – terminus so'zdanolingan bo'lib, chek, chegara degan ma'nolarni ifodalaydi. Termin – fan, texnika yoki kas-hunarning biror sohasiga xos b'lgan muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasidir. Termin so'zi o'rnida ba'zan atama, istiloh so'zlarining qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin. Ammo bu to'g'ri emas. Negaki atama termin so'ziga nisbatan tor ma'noni ifodalaydi, istiloh esa arabcha so'zdir. Bu kichik farq me'yorga aylanmagan va ko'pchilik buni bilishmaydi. Demak, “atama” so'zini “termin” tushunchasi ma'nosida qo'llaganimizda, uni umumiy narsa-predmetlar, voqea-hodisalarning nomi sifatida emas, balki aniq bir ilmiy tushunchani ifodalaydigan va ma'lum bir fan sohasiga tegishli bo'lgan birliklarni anglashimiz lozim. Terminlar ilmiy kommunikatsiyadan jonli so'zlashuvga o'tganda ma'lum vaqt davomida xalq uchun tushunarli so'zlarga aylanib boradi. Olamning ilmiy – me'yoriy manzarasini terminlarsiz tasavvur qilish qiyin. Chunki terminlar ilmiy matn hosil qiluvchi tayanch birliklar vazifasini bajaradi.

Tilshunos olimlarning terminologiya sohasida yondashuvlari turlicha bo'lib, ‘termin’ so'ziga har xil ta'rif berishgan. Misol tariqasida, A.Reformatskiy bu sohasida o'z hissasini qo'shib, terminga quyidagicha ta'rif beradi: “Terminlar – bu maxsus so'zlardir”.<sup>4</sup> A.V. Kalinin muayyan terminlarni “maxsus leksika” deb ataydi va ularni ikki guruhga ajratadi:

- 1) Maxsus leksikaga, birinchi navbatda, terminlar kiradi.
- 2) Terminlardan tashqari maxsus leksikaga professionalizmlar kiradi.

---

<sup>4</sup> В.А Татаринов, Теория терминоведения. Теория термина: история и современное состояние, Москва, 1996.

Bundan tashqari, A.V. Kalinin terminlar va professionalizmlar o'rtasidagi farqni ajratgan: "Termin bilan professionalizmlar o'rtasidagi farq shuki, termin muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo'jaligi yoxud texnikadagi tamomila rasmiy bo'lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasi yoki nomi hisoblanadi. Professionalizm esa biror kasb, mutaxassislik, ko'pincha jonli tilde tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat'iy, ilmiy tavsifiga ega bo'lmagan yarim rasmiy so'zidir".<sup>5</sup>

Bunga e'tiroz bildirgan holda, R. Doniyorov: "Bunday qat'iy da'vo tilni sinfiy deb hisoblagan ayrim 'olim'larning qarashlari davomidir desak, xatoga yo'l qo'ymasmiz", - deya munosabat bildirgan.

H. Jamolxonov terminga nisbatan munosabatda bo'lar ekan quyidagicha yozadi: "Terminlar fan - texnika, adabiyot, san'at va boshqa sohalarga oid ixtisoslashgan, qo'llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan nominativ birliklardir. Masalan: gulkosa, shona (botanikada); to'tburchak, kvadrat (geometriyada); ega, kesim (tilshunoslikda); qofiya, turoq, vazn (adabiyotshunoslikda) kabi".<sup>6</sup>

Determinlashish – terminologik sistemadagi so'zning adabiy tilga to'la o'zlashishidir. Terminologiya, lotincha – terminus, ya'ni chegara va logos – fan, ta'limot so'zlaridan iborat bo'lib, odatda ikki xil ma'noda ishlatiladi. Bulardan birinchisi muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish tarmog'ining yoxud san'at, ijtimoiy faoliyat sohasining tushunchalar tizimi bilan bog'liq terminlar majmui hisoblanadi. Misol tariqasida quyidagilarni aytishimiz mumkin: Harbiy terminologiya; Zargarlik terminologiyasi; Texnika terminologiyasi. Ikkinchi ma'nosi esa tilshunoslik bilan uzviy bog'liq bo'lib, tilshunoslikning terminlarni o'rganish, tartibga solish bilan shug'ullanuvchi sohasidir.

---

<sup>5</sup>В.А Татаринov, Теория терминоведения. Теория термина: история и современное состояние, Москва, 1996.

<sup>6</sup>Н.Номидий, Ш.Абдуллоева, С.Иброhimova, "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati", Toshkent, O'qituvchi, 1979.

Terminologiya - ijtimoiy muloqotning eng muhim vositalaridan biri, umuman tilning mavjudligiga katta ta'sir ko'rsatdi. Termin tuzish va yaratish mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida maqsadli qidiruv sifatida ifodalanishi mumkin. Ma'lum bir milliy va xalqaro til yaratilgan ekan, shu til kodlanadi, saqlanadi va qayta ishlanadi. Shubhasizki, tillar uchun terminologik ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi

Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan bo'lib kelgan. Negaki terminlarning sohalar lug'aviy qatlamlaridagi o'rni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash imkonini beradi. Terminologiyaga bag'ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarni anglatadigan va, asosan, nominativ funksiyani bajaradigan birliklar termin deb qaraladi.

Ma'lumki, funksional yondashuv asosiy e'tiborni lisoniy belgi aktualizatsiyasi (qo'llanilishi) bilan bog'liq holatlarga qaratadi. Shuning uchun terminning mohiyatini chuqur va har tomonlama o'rganish zarurati funksional yondashuv tamoyillaridan ham foydalanishni taqozo etadi. Terminga nisbatan funksional yondashuv E. Drozen (1934), G.O. Vinokur (1939), V.V. Vinogradov, A.A. Reformatsky (1986) va V.G. Gak kabi olimlarning ishlarida o'rganilgan. Shuningdek, A.A. Reformatskiy (1986), B.N. Goloven (1981), N.P. Kuzkin (1962), L. Kapanadze (1965) va boshqa ko'plab olimlar terminologiya sohasida, O.S. Akhmanova (1990), V.P. Kaprovich (1978), R.Yu. Kobrin (1991), V.M. Leychik (1986), V.D. Tabanakova (1998), E.N. Tolikina kabi olimlar terminologiyaning semantik xususiyatlari ustida, A.S. Gelt terminologiya va atamalar majmuiorasidagi bog'liqlik, M.V. Organisyan (2003), O.V. Dovbysh (2003), S.V. Sakhneevich (1998) terminologiyaning tarjima muammolari hamda Z.M. Polyutina (2002) terminologiya sohasiga yaqin bo'lgan sohalar ustida izlanishlar olib borganlar.<sup>7</sup>

Narsa-buyum ma'nosi va tushuncha ma'nosi orasidagi munosabatni o'rganishda quyidagi uch holatni inobatga olgan holda ish ko'rish maqsadga

---

<sup>7</sup>M.U Saidova, The problem of studying literary terms on figurative language, Buxoro.

muvofig: a) termin lug'aviy ma'noga ega, ammo bu ma'no faqat ifodalanayotgan tushuncha bilan chegaralanmaydi (D.P. Gorskiy, K.A. Levkovskaya, A.S. Gerd); b) termin lug'aviy ma'noga ega va bu ma'no tushunchadir (Ye. M. Galkina - Fedoruk, P.S. Popov); c) termin lug'aviy ma'noga ega emas, balki tushunchaga to'g'ri keladi (Zvegensev, Reformatskiy, L.A. Kapanadze).

Leksikologiya so'zi lexis – so'z, logos – fan, ta'limot degan ma'nolarni bildiradi. Leksikologiyada tilning lug'at boyligi o'rganiladi. Uning lug'at tuzish masalalari bilan shug'ullanadigan bo'limi leksikografiya deb yuritiladi. Tilimizdagi so'zlarning alifbo tartibida joylashtirilishiga lug'at, lug'at tuzish qoidalarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasiga esa lug'atshunoslik (leksikografiya) deyiladi. Bundan tashqari, tildagi jamiki so'zlar, ularning tarixi, izohi, imlosi kabi muhim masalalari bilan lug'atshunoslik shug'ullanadi. Mukammal tuzilgan lug'at va so'zlar u yoki bu tilning boyligini o'zida to'playdi. Shuningdek, lug'atlar qadimdan yaratilib kelingan. Masalan, eng qadimiy lug'atlardan biri Mahmud Qoshg'ariy tomonidan yaratilgan "Devoni-lug'atit-turk" yoxud usmonli turk tilida yaratilgan "Abushqa" lug'atlari tarixdan bizga ma'lum.

Lug'atlar, asosan, ikki guruhga bo'linadi:

1. Qomusiy lug'atlar. Bunday lug'atlarda mashhur shaxslar, ilmiy, siyosiy, adabiy hamda ishlab chiqarishga xos tushunchalar, borliqdagi predmetlar, hodisalar haqida ma'lumot beriladi.
2. Lingvistik (tilshunoslik) lug'atlari. Bular ham o'z navbatida bir tilli va ko'p tilli lug'atlarga ajratiladi. Bir tilli lug'atlarga imlo lug'atlari, izohli lug'at, paronimlar lug'ati, iboralar lug'ati, orfoepik lug'at kabilarni kiritishimiz mumkin.

Ko'p tilli lug'atlarga esa tarjima lug'atlari kiradi. So'zlarning kelib chiqishini izohlaydigan lug'atlar etimologik lug'atlar deb ataladi.

Terminga qo'yiladigan asosiy me'yoriy talablar dastlab terminologiya maktabi asoschisi D.S. Lotte tomonidan ishlab chiqilgan. Bu talablar quyidagilardir: tizimlilik, konkretga bog'liq emaslik, qisqalik, bir ma'nolilik,

aniqlilik, oddiylilik, tushunarliklik, tadbiiq etilganlik darajasi va boshqalar. Ularning ayrimlari qo'shimcha ma'lumotlar bilan ko'plab olimlar, jumladan, I. N. Volkova, A.V. Krijanovskaya, L. A. S-imonenko va boshqalarning ishlarida sanab o'tilgan.

Quyida shu talablarning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

1. Tizimlilik: har qanday termin muayyan terminologik tizimning bir bo'lagi. Aynan shu xususiyat uni termin maqomiga ko'taradi. Termin tizimi esa ikki xil tizimlilikka ega - mantiqiy tizimlilik va lisoniy tizimlilik.
2. Bir ma'nolilik: termin faqat bir ilmiy yoki texnik tushunchani ifodalashi va bir tushuncha faqat bir terminga mos bo'lishi kerak. Termin ma'nosining kontekstga qarab turlanib turishi, D.S.Lottega ko'ra, terminologiyanning eng jiddiy kamchiliklaridan biridir.
3. Qisqalik (lo'ndalik, ixchamlik): terminning qisqa varianti – bu funksional nuqtai nazardan terminga teng shakl. Uni erkin va ixtiyoriy shaklda qo'llashning imkoni yo'q.
4. Aniqlilik: ilmiy tushuncha aniq chegaraga ega va bu chegara uning ta'rifida o'z ifodasini topadi. Terminning aniqligi deganda uning ta'rifida berilgan tushunchaga xos barcha belgilarning mavjudligi tushuniladi.
5. Lisoniy asos: o'z yoki o'zga til asosida yasalgan terminlardan birini tanlash lozim bo'lganda, albatta, o'z termindan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki o'zlashma terminlarni ko'p va asossiz ravishda qo'llash muqarrar ravishda terminologiyanning umumxalq tilidan ajralib va nomutaxassislarga tushunarsiz bo'lib qolishiga olib keladi.

Terminning struktur tarkibi, V.P. Danilenkoning ko'rsatishicha, uch lug'aviy qatlamni o'z ichiga oladi: 1) noterminologik leksika; 2) umumilmiy leksika; 3) terminologik leksika. Agar umumilmiy terminlar bir fan doirasi bilan chegaralanmaydigan umumiy ma'nolarni ifodalasa, terminologik leksika

(konkret terminotizimning maxsus so'zlari) ilm-fan tilining eng ko'p ma'no tashuvchi qismidir<sup>8</sup>.

Z.I.Komarova leksemalarni stilistik nuqtai nazardan me'yoriy (so'zning o'z ma'nosidagi terminlar) va g'ayri me'yoriy (professionalizm, terminoid individual obrazli iboralar) guruhlarga ajratadi.

Ko'pincha, termin va nomenklatura tushunchalari o'zaro farqlanmasdan qo'llanadi. Shuning uchun ushbu o'rinda yo'l-yo'lakay nomenklaturaga ham munosabat bildirishga to'g'ri keladi. Nomenklatura (lotincha - nomenclatura "ro'yxat") – ilm-fanning turdosh (tipik) obyektlari nomi. Agar termin umumiy tushunchani ifodalasa, nomenklatura xususiy tushunchani ifodalaydi. Masalan, ta'lim muassasalari turlari, o'quv-didaktik jihoz va shu kabilar nomlari nomenklaturalardir.

XVIII va XIX asrlarda atamashunoslar terminologiyada yetakchi bo'lgan. Shunga qaramay, ular terminlarning tarqalishidan qo'rquvga tushganlar. Ular shuningdek, formalar xilma-xilligi hamda shakllar va tushunchalar o'rtasidagi munosabatlardan tashvishga tushishdi. Na konsepsiyalarning tabiati va na yangi atamalarni yaratish asoslari ularda qiziqish uyg'ota oldi.

XX asrda muhandislar va texnik mutaxassislar ishtirok etishdi. Tez rivojlanish va texnologiyalarni rivojlantirish nafaqat yangi konsepsiyalarning nomlanishi, balki, talab qilinadigan talablarni ham o'z ichiga oladigan ish bilan ta'minlash shartlari haqida shartnoma tuzildi. Amaliyot natijasida terminologik ishmuayyan ixtisoslashgan sohalarda tashkil etildi. XX asrning birinchi yarmida na tilshunoslik, na sotsiologik terminlarga alohida e'tibor berildi. Terminologiya 1930-yillarda shakllana boshladi. Terminologiya sohasida olib borilgan ko'pgina tadqiqotlar Eugen Vusterning nomi bilan bog'liq, avstriyalik tilshunos Vuster terminologiyaning otasi deb hisoblangan, Vusterning ishlari zamonaviy terminologiya sohasining rivojlanishida juda muhim rol o'ynagan. 1930- yil doktorlik dissertatsiyasida u dalillarni taqdim etadi. Terminologiyada ish

---

<sup>8</sup>Лейчик В.М, Оптимальная длина и оптимальная структура термина, Москва, 1981, 63 стр.

uslublarini tizimlashtirish, bir qator prinsiplarni belgilab, metodologiya sohasida terminlardan foydalanishning asosiy qoidalarini belgilab beradi.

Vusterning fikriga ko'ra, to'rt nafar olim tan olinishi mumkin bo'lgan terminlar nazariyasining intellektual otalari hisoblanadi: "Germaniyalik olim Alfred Shlomann, u birinchilardan bo'lib maxsus terminlarning muntazamligini hisobga olgan; Shveytsariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyur, birinchi bo'lib tilning sistematik xarakteriga e'tibor qaratdi; Rossiyalik E. Dresen, standartlashtirishning muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlagan; YuNESKOning ingliz tili olimi J. E. Xolmstrom, u terminlarni xalqaro miqyosda tarqatishda vositachi bo'lgan "<sup>9</sup>. Terminologiya - ijtimoiy muloqotning eng muhim vositalaridan biri, umuman tilning mavjudligiga katta ta'sir ko'rsatdi. Termin tuzish va yaratish mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida maqsadli qidiruv sifatida ifodalanishi mumkin. Ma'lum bir milliy va xalqaro til yaratilgan ekan, shu tilni kodlanadi, saqlanadi va qayta ishlanadi. Shubhasizki, tillar uchun terminologik ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Terminologiya sohasida termin o'zlashtirish uzoq vaqt davomida o'rganilgan. Shunga qaramasdan, tadqiqotchilarning aksariyati bu masalaning tarixiga e'tibor berishmaydi. Shu sababli ham yangi paydo bo'layotgan terminlarning foydalanish sohasidagi ziddiyatlarga duch kelamiz.

Shuni ta'kidlash kerakki, atamalar har bir tilda bir xil bo'lmaydi, negaki uning paydo bo'lish tarixi, foydalanish sohasi va, albatta, terminlarning yasash qonun-qoidalari ham turlicha bo'lishi mumkin.

Hozirgi vaqtda ingliz adabiyotshunosligi terminologiyasida yangi terminlarning paydo bo'lishi jarayoni juda sezilarli darajada kuchaygan. Bu nafaqat ingliz tili uchun, balki, ko'plab tillar uchun ham o'ziga xosdir. Til leksikasiga yangi so'zlarning, ya'ni neologizmlarning paydo bo'lish ehtimolligi yuqori. Boshqa tillardan so'z o'zlashtirish neologizm turlaridan biri.

---

<sup>9</sup>Dehqonova. L., Xudoyqulova. Sh. «Terminologiya va davlat tilida ish yuritish asoslari». Guliston – 2013. 31-32-betlar.

## **1.2. Adabiyotshunoslik terminlarining o'rganilish tarixi.**

Tilshunoslik tushunchalari haqidagi ilmiy va amaliy tadqiqotlar Akmanova (1966, 1990), Vasileva (1998), Gvishiani (1986, 1990), Golovin (1976), Kulikova (2002), Petrosyants (2004), Podolskaya, Slyusarova (1983, 2000), Shelov (1998) va boshqalar tomonidan olib borilgan. So'nggi yillarda tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo'yicha ko'pgina tadqiqotlar nashr etilgan va biz bunga misol qilib, Nikulina (1990), Utkina (2001), Emelyanova (2000), Vermeer (1971), Zaxarenkova (1999), Nemis (1990), Golovkina (1996) kabilarni ko'rsatishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarga diqqat bilan qarasak, biz tadqiqot loyihasi ob'ekti bo'lgan adabiy atamalar, sloveniya, rim va nemis tillarida kamdan-kam hollarda o'rganilganini ko'ramiz. Shuning uchun falsafiy, madaniy, axloqiy, estetik, diniy, lingvistik va, ayniqsa, adabiy so'zlarni o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

E. G. Petrosyantsga ko'ra, hozirgi kunda tilshunoslik bo'yicha 70 dan ortiq lug'atlar, ensiklopediyalar va ma'lumotnomalar mavjud. Shu bilan birga, lug'atlar, ensiklopediyalar va adabiy jihatdan mos keladigan kitoblar nisbatan kam uchraydi. Bu holat adabiyot shartlarining yetarlicha o'rganilmaganligini va ular to'g'risidagi ma'lumotlar tizimlanmaganligini ko'rsatadi<sup>10</sup>.

Ushbu ishimizda biz ramziy tilning adabiy shartlarini o'rganish bo'yicha turli yondashuvlarga murojaat qilmoqchimiz. Adabiyotda matn ma'nosidagi turli tarkibiy tuzilmalarni o'z ichiga olgan turli xil soyabon atamalar ishlatilgan. Biz tasviriy tilni ishlatishga qaror qildik, chunki bu atama, biz o'ylaymizki, ishni yanada dramatik va mantiqiy holga keltirish uchun nutq so'zlari ishlatiladi.

---

<sup>10</sup>E.G Petrosyants, Linguistical terminology: structure, semantics, derivation: on English material, Pyatigors, 2004.

Majoziy til - so'zlarning yoki ifodalarning so'z ma'nosida ishlatilmasligi, aksariyat hollarda tasvir orqali ta'sir qilish uchun, matnning aniq tillari esa faqat faktlar keltiradi. Tasviriy tilning ko'plab turlari, jumladan, *simile metaphor*, *personification*, va boshqalar kabi adabiy vositalar mavjud.

Majoziy tilning ta'rifi tom ma'nodagi tilga qarama-qarshi bo'lib, u so'zlarning faqat "to'g'ri" yoki lug'atini belgilaydi. Majoziy til odatda o'quvchi yoki tinglovchini ikkinchi ma'noni tushunish uchun ba'zi bir qo'shimcha farqlarni, kontekstni va dalillarni tushunishni talab qiladi.

Aslida ramziy til o'rganish uzoq tarixga asoslangan. Aristotel (yunon) va Quintilian (roman) kabi qadimiy faylasuflar majoziy tilning ishlatilishi va vazifasi haqida birinchi bo'lib gapirishgan. Aristotelning aytishicha, ramziy til nafaqat bezak, balki odamlarning aslida biz bilgan narsalar bilan taqqoslash yo'li bilan axborotni qayta ishlash jarayonini aks ettiradi. Ko'p sonli adabiy asarlar misolida turli misollarni topishimiz mumkin. Bu ikkalasi ham, chunki tasviriy tilga mos keladigan juda ko'p adabiy vositalar mavjud va, shuningdek, inson aqli turli xil majoziy tillarga yaxshi munosabat bildiradi. Darhaqiqat, ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, majoziy til bolalar uchun tabiiy ravishda keladi va yangi tushunchalarni tushunishga yordam beradi. Shuning uchun yozuvchilar majoziy til namunalaridan foydalanganlarida, ular yangi yoki noyob narsalarni tushuntirishga harakat qilishadi.

Izlanish paytida biz majoziy tilning turli ta'riflari va tasniflariga duch keldik:

*"If something happens literally it actually happens; if something happens figuratively, it feels like it is happening. If you are literally jumping for joy, for instance, it means you are leaping in the air because you are very happy. If you are figuratively jumping for joy, it means you are so happy that you could jump for joy, but are saving your energy for other matters"* ("Agar biror narsa ma'nosiz bo'lsa, - deydi bolalar kitob muallifi Lemoni Snicket, - aslida ro'y beradi, majoziy ma'noda biror narsa ro'y berishi mumkin bo'lsa, bu sodir bo'layotganini his qiladi ... Agar siz to'g'ridan-to'g'ri sevinch uchun sakrab tursangiz, chunki siz mamnuniyat bilan quvonch baxsh etayotgan bo'lsangiz,

shunchalik baxtiyormizki, quvonchingizdan o'tishingiz mumkin, ammo energiyangizni boshqa masalalar uchun saqlab qolasiz ") (*The Bad Beginning*, 2000).

Majoziy til, shuningdek an'anaviy ma'nodan, tartibdan yoki so'zlarni qurishdan qasddan ajralish sifatida ham ta'riflanishi mumkin. Shoirilar va adabiyotshunoslar bu uslubni his-tuyg'ularni namoyon etish va o'quvchilarga ularning fikrlarida tasvirlarni shakllantirishga yordam berish uchun ishlatishadi. Shunday qilib, majoziy til, kitobxonlarning murakkab va mavhum tabiatiga ko'ra boshqacha tarzda tushuna olmaydigan fikrni etkazishning foydali usuli hisoblanadi. Bundan tashqari, adabiy matnni tahlil qilishda ham yordam beradi.

Agar biz majoziy tilni tasniflash haqida gapiradigan bo'lsak, ularni tasniflashning xilma-xilligini ko'rishimiz mumkin. Klassik retorikada majoziy til sxema va troplarga ajratiladi. Sxemalar odatiy so'z tartibini yoki so'z naqshini o'zgartiradigan nutq so'zlarini ifodalaydi, troplar so'zning ma'nosini o'zgartiradi. Eng ko'p ishlatiladigan troplar metaphor (metafora), metonymy (metonimiya), simile (similiya), personification (shaxslantirish), irony (kinoya), hyperbole (giperbola), allegory (allegoriya), allusion (illusiya) and alliteration (alliteratsiya)ni o'z ichiga oladi.

Mashhur tilshunos, Moskva Davlat Lingvistika Universitetining professori I.R. Galperin so'zlarni ifodalovchi vositalar va stilistik vositalarni ishlatgan va ularni oddiy, juda batafsil tasniflagandi. 1971-yilda nashr etilgan "*Stylistics*" asarida uslubiy qurilmalar quyidagi darajaga yo'naltirilgan yondashuvga asoslanib bo'linadi. Uning so'zlariga ko'ra, uslubiy qurilmaning asosiy tashkil etuvchi xususiyati ishlatiladigan birlikning ikkita ma'nosida ikkilik muxolifat bo'lib, ulardan biri normativ ravishda tilda aniqlanadi va kontekstga bog'liq emas, ikkinchisi muayyan kontekstdan kelib chiqadi va kontekstli. Ularni to'rtta asosiy turga ajratdi: (1) so'zning sintaktik tarzda tashkil etilishidan qat'i nazar, leksik ma'nolarning ikki tomonlama muxolifligiga asoslangan uslubiy qurilmalar - leksik uslublar; (2) semantik-sintaktik uslub qurollaridan qat'i nazar, sintaktik ma'nolarning ikki tomonlama qarshiligiga asoslangan uslubli qurilmalar; (3)

leksik ma'nolarning ikki tomonlama qarshiligiga asoslangan stilistik vositalar - ishlatiladigan leksik birliklarning sintaktik tarzda tashkil etilishi - leksik-sintaktik uslubiy qurilma; (4) tilning fonologik va grafik elementlari ma'nosini aks ettiruvchi uslubiy qurilmalar - grafik va fonetik uslublar<sup>11</sup>.

Har bir tur bir necha qismga bo'linadi. Shunday qilib, leksik uslubiy qurilma so'zlarning mantiqiy va nominal ma'nolari (antonomasia) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida qurilmalarga bo'linadi; so'zlarning ikki mantiqiy ma'nosi (metonymy, metaphor, irony) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik; so'zlarning mantiqiy va sezgir ma'nolari (hyperbole, epithet, oxymoron) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik; so'zlarning erkin va ifodalangan ma'nolari (zeugma, pun) o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarga asoslangan qurilmalar. Sintaktik stilistik vositalar ishlatilgan birliklarning leksik ma'nolariga qaramasdan, so'zlarning sintaktik tuzilishi bilan bog'liq bo'lib, Galperin ularni tasniflashning asosiy mezonlarini taklif qildi. Ular juftlik printsipli bo'yicha qurilgan *inversion* (reversiv), *detached construction* (alohida qurilish), *parallel construction* (parallel qurilish), *chiasmus* (xiazma), *repetition* (takrorlash); ulanish turi (*asyndeton*, *polysyndeton*, *gap-sentence link*, *apokoinu constraction*) asosida qurilma; interaktiv qurilishning o'ziga xos qo'llanishi (*ellipsis*, *aposiopesis*, *question in the narrative*) bilan birlashtirilgan qurilmalar. Stilistik qurilmalarning uchinchi guruhida istalgan ta'sir sobit sintaktik strukturani qo'llash va so'zlarning leksik ma'nolari aniqlanganligi bilan erishiladi. Demak, leksik-sintaktik uslubga *climax*, *antithesis*, *litotes*, *simile*, *periphrasis*, *represented speech*, *rhetorical questions* kabilar kiritilgan. Tasviriy ifoda vositasi og'zaki nutqda intonatsiya va urg'u bilan ifodalangan ushbu his-tuyg'ularni yozma ravishda taqdim etishga xizmat qiladi. Galperin bu yerda tinish belgilarini va so'zning yozilishini ataylab o'zgartirishi haqida gapirdi. Fonetik vositalar *alliteration* (alliteratsiya),

---

<sup>11</sup>Galperin I. R. Stylistics. – Moscow: Higher school publishing house, 1971.

*onomatopoeia* (onomatopiya), *rhyme* (qofiya), *rhythm* (ritm), *graphon* (grafika)ni o'z ichiga oladi<sup>12</sup>.

1967-yilda ingliz tadqiqotchisi G. Leech "*Essays on Style and Language*" kitobida uslubiy nazariyaga o'z hissasini qo'shdi. Uning yondashuvi tilning leksik va grammatik normasidan chetga chiqish natijasida ko'rib chiqilgan uslubiy funksiyalarning xususiyatlarini tahlil qilishga yordam beradigan tilshunoslik nazariyasiga asoslangan uslubiy qurilmalarni davolashga qaratilgan. Uning nazariyasiga ko'ra, tilshunos adabiyotga til haqida umumiy tushunchaning darajasi bilan yaqinlashishi kerak. Umumiy umumlashma turlaridan biri dialekt va tilga tegishli bo'lishi mumkin. Bu turdagi ta'riflar nutq, yozish, eshitish va o'qishning individual voqealaridan iborat bo'lishi kerak. Shu bois Leech, ikkita tarozi tilda ajratish muhimligini saqlab qoladi: "register scale" va "dialect scale". "Registratsiya shkalasi" og'zaki tilni yozma tildan ajratib turadi, takabburlikni hurmat qilish, fandan reklama va hokazo. Bu atamalar jamiyatdagi lingvistik faoliyatni qamrab oladi. "Dialekt shkalasi" turli yoshdagi, jinsiy, ijtimoiy qatlamlarda, geografik hududlarda yoki idiyolektagi kishilarning tilini farqlaydi. Shunday qilib, har qanday muallifning adabiy asarini har ikki o'lchovga mos ravishda o'rganish kerak. Leech, yozuvchilar va shoirlarning bir qator deviyant xususiyatlarga ega tilni ishlatishini ta'kidlaydi. U o'z tasnifini adabiyot tilidagi oddiy va deviy xususiyatlar o'rtasidagi farqni prinsipiga asoslaydi. Yolg'on xususiyatlari bilan u paradigmatic va sintagmatic sapmalarni ajrata oladi. Lingvistik birliklar birlamchi tilshunoslik shaklida birlashtirilganda sintetik ravishda bog'lanadi. Paradigmatic raqamlar muallifga oddiy tanlov variantlariga zid bo'lgan munosib elementlardan tanlab beradi. Misol uchun, muallifning tanlangan ismini tanlash adabiy va she'riy tilda paradigmatic og'ish paydo bo'lishi mumkin: *Farmyards away, a grief ago, all sun long*.

Matematik tilning so'nggi tasniflaridan biri Y. M. Skrebnev tomonidan 1994 yilda chop etilgan "*Fundamentals of English stylistics*" kitobida berilgan.

---

<sup>12</sup>Galperin I.O R. *Stylistics*. – Moscow: Higher school publishing house, 1971.

Uning yondoshuvi Leechning paradigmatic va sintagmatik bo'linish tizimida kuzatilgan tamoyillarning kombinatsiyasi va Galperinning tasnifi tashkil etilgan. Uning tasnifi ikkalasidan ham farq qiladi, bu erda Skrebnev bir tizimning mexanizmini boshqasidan ustun qo'ymaslikka muvaffaq bo'ldi va bu ma'lumotni ierarxik joylashtirishning yangi usulini yaratdi. U stilistikani paradigmatic stilistikaga (birliklarga) va sintagmatik stilistikaga (izchillikka) ajratdi. U shuningdek, fonetika, morfologiya, leksikologiya va sintaksisga yana bir darajani qo'shdi va bu semasiologiya (semantika)<sup>13</sup>. Shunday qilib, fonetikada paradigmatic stilistika (*italics, capitalization, repetition of letters, onomatopoeia; morphology, depersonification*)ni o'z ichiga oladi; leksikologiya yana (*poetic, official, professional*) va salbiy (*colloquial, neologisms, jargon, slang, nonce-words, vulgar words*) bo'linadi; sintaksisi shuningdek jumla tarkibining to'liqligi (*ellipsis, aposiopesis, one member nominative sentence, repetition, syntactic tautology, polysyndeton*), so'z tartibini (*inversion*), jumlning kommunikativ turlari (*quasi-affirmative sentences, quasi-interrogative sentences, quasi-negative sentences, quasi-imperative sentences*) va sintaktik aloqaning turlari (*detachment, parenthetical elements, asyndetic subordination, coordination*) va semantikalarda (*hyperbole, meiosis, metonymy, metaphor, allusion, personification, antonomasia, allegory, irony*) mavjud. Fonetikada sintagmatik stilistikaga (*alliteration, assonance, paronomasia, rhythm, meter, rhyme*) kiradi; morfologiya bu yerda paragraf yoki matnda muayyan uslubiy effekt yaratishda yordam beradigan grammatik shakllarning ahamiyati bilan bog'liq; leksikologiya ko'plab uslubiy muammolarni, xususan, turli xil uslublar ranglarini ifodalash bilan bog'liq bo'lgan "so'z va mazmun" yondashishini o'rganadi; sintaksis (*parallelism, anaphora, epiphora, framing, anadiplosis, chiasmus*); semantika o'z ichiga (*simile, clarifying synonyms, climax, anti-climax, zeugma, pun, disguised tautology, oxymoron, antithesis*) kabilarni oladi.

Nutq elementlarini o'rganish paytida biz nemis tilshunosi Jochen Lüders tomonidan 2013 yilda qiziqarli va juda oddiy tasniflashni boshdan kechirdik. U

---

<sup>13</sup>Y.M Skrebnev, Fundamentals of English Stylistics. – Moscow, 1994.

ularni to'rtta turga ajratdi: ramzning tasviriy uslublari (*simile, metaphor, synecdoche, personification, symbol*); ovozli stilistik qurilmalar (*alliteration, onomatopoeia, metre, iambic, rhyme*); strukturaviy stilistik qurilmalar (*anaphora, parallelism, triple, climax, anticlimax, enumeration*) va boshqa stilistik qurilmalarda (*allusion, euphemism, hyperbole, understatement, irony, satire, paradox, oxymoron, pun, rhetorical questions*).

Quyida ensiklopediya va lug'atlarda berilgan so'zlar tasnifini taqdim etmoqchiman:

Merriam Websterning Adabiy ensiklopediyasi (*Merriam Webster's Encyclopedia of Literature*)ga ko'ra, nutq beshta asosiy toifaga bo'linadi: (1) o'xshashlik yoki aloqalar (*simile, metaphor, kenning, conceit, parallelism, personification, metonymy, synecdoche, euphemism*); (2) diqqat va kamsitish ko'rsatkichlari (*hyperbola, litotes, rhetorical question, antithesis, climax, bathos, paradox, oxymoron, irony*); (3) tovush figuralari (*alliteration, repetition, anaphora, onomatopoeia*); (4) og'zaki o'yinlar (*pun, anagram*) va (5) xatolar (*malapropism, periphrases, spoonerism*)<sup>14</sup>.

So'zlarning boshqa bir tasnifi muallifning Tom Q.McArthurning "*The Concise Oxford Companion to the English Language*" kitobida to'rt guruhga ajratiladi: 1) fonologik raqamlar (*alliteration, assonance and onomatopoeia*); (2) orfografik ma'lumotlar va ular natija hosil qilish uchun shakllardan foydalanadi: Masalan, *America* spelt *Amerika* (1970 yilda chap qanotli radikallar va 80-yillarda filmning nomi sifatida) totalitar davlat taklif qilish uchun yozgan; (3) sintaktik raqamlar standart tilga standart tilni keltirishi mumkin, chunki AQSh prezidenti Ronald Reyganning "*You ain't seen nothing yet*" (1984), kuchli, folksiyani tasavvur qilish uchun foydalaniladigan nostandart ikkilik salbiy; (4) leksik raqamlar odatiy tarzda keng tarqaladi, masalan, mubolag'a ("*loads of money*" giperbola), taqqoslash ("*like death warmed up*", "*life is an uphill struggle*" similiya), jismoniy va boshqa assotsiatsiyalar ("*Crown property*" for

---

<sup>14</sup>Merriam Webster Encyclopedia of Literature. – Merriam Webster & Britannica, 1995.

something owned by royalty" metonimiya) va ("All hands on deck! " snekdoha).<sup>15</sup>

J.A Kuddonning "A Dictionary of Literary terms and Literary theory" va M.H Abramsning "Glossary of Literary terms" kitoblarida so'zlarning raqamlarini misollar va ularning ta'riflari bilan izohlashadi, lekin ular uchun hech qanday tasnifga ega emas. Biroq, Chris Baldickning "Oxford Dictionary of Literary terms" kitobidagi eski ritorika nazariyasiga asoslanib, nutq so'zlarini taqsimlash mumkin edi. So'zlar ma'nosini kengaytiradigan va ularning buyrug'iga ta'sir ko'rsatadigan yoki nutq nutqlari deb ataladigan tomoshabinga ta'sir ko'rsatadigan fikrlarning shakllari sifatida tanilgan o'nlab raqamlarni keltirib, tasnifladi. Ushbu lug'atda eng muhim troplar *metaphor*, *simile*, *metonymy*, *synecdoche*, *personification*, *irony* va boshqalardir. Bular *hyperbole* (*overstatement*), *litotes* (*understatement*) and *periphrasis* (*circumlocution*). Ritorik raqamlar bir narsani turli xil usullarda ta'kidlashi yoki kuchaytirishi mumkin: so'zlarni bir-biridan farqli ravishda kiritish (*antithesis*); har xil naqshlarda so'zlarni takrorlash (*anadiplosis*, *anaphora*, *antistrophe*, and *chiasmus*); so'zlarning tartibini o'zgartirish (*hyperbaton*); (*asyndeton*) qo'shilishlarni yo'qotish; kursni o'zgartirish yoki o'rta muddatlarda o'tkazish (*anacoluthon*, *aposiopesis*); (*apostrophe*) yoki tergov (*rhetorical question*) ning maxsus usullarini va ayrim tovush figuralari deb ataladigan raqamlarning yana bir toifasini tovushlarni takrorlashga, masalan, *alliteration*, *assonance*, *consonance*<sup>16</sup>.

Umuman olganda, nutq so'zlari, yozuvchilar tomonidan tez-tez ishlatib turiladigan adabiy asarlari uchun xos bo'lgan universal badiiy tuzilmalar to'plami bo'lib, ularning ma'nolari bilan ma'nolari va mantiqiy asoslarini beradi. Bunday asarlarni o'quvchilar o'qib chiqqanda, ular oxir-oqibat ularni tanib, qadrlashadi. Ularning universalligi sababli ular kitobxonlarga o'zlarining qiymatini aniqlash

---

<sup>15</sup>Tom McArthur, The Concise Oxford Companion to the English Language, Oxford, 1992.

<sup>16</sup>Baldick Chris. The Concise Oxford Dictionary of Literary terms. - Oxford: Oxford University Press, 2001.

uchun bir yozuvchining ishini boshqasiga solishtirishga imkon beradi. Ular nafaqat adabiyotni obodonlashtiribgina qolmay, balki o'quvchilarni juda yaxshi tushunishlarini o'rganib, o'qishdan zavq olishlari uchun yanada chuqur ma'no beradilar. Bundan tashqari, ular o'quvchilarning tasavvurlarini belgi va sahnalarni yanada aniqroq ko'rsatishga undashga yordam beradi. Agar ularni tasniflash haqida gapiradigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan olimlar tomonidan yaratilgan tasniflarni ensiklopediya va lug'atlarda berilganlardan ko'ra murakkabroq va batafsilroq deb bilamiz. Stilistika bo'yicha taniqli rus mutaxassisi Galperin oddiyroq va tushunarli tasniflashni beradi, ammo ifodali vositalar va uslubiy qurilmalar bir-biriga ko'proq bog'liqdir va buning ma'nosini ifoda etish vositalaridan va uslubiy qurilmalaridan birortasi bexabar holda yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Skrebnev har bir ma'noni til darajasida baham ko'radi va majoziy tilni aniq ajratishga imkon beradi, lekin uning tasnifi stilistik vositalarni so'z guruhlari va tuzilmalari bilan birlashtiradi. Nemis tilshunosining taklif etadigan bo'limi juda oddiy va u barcha muhim so'zlarni o'z ichiga olmaydi. Yuqorida berilgan tasniflarga kelsak, *"Merriam Webster Encyclopedia of Literature and Oxford Dictionary of literary terms"* kitobida berilgan atamalar ayniqsa adabiy terminlarga qiziqqan kishilar uchun oson tushunarli.

Adabiy terminologiya va uni shakllantirishning asosiy manbalarini quyidagicha tahlil qilish mumkin: bir tomondan, boshqa tillarda keng foydalaniladigan terminlarni tayyor holda boshqa bir tilga o'zlashtirish mumkin (o'zlashgan so'zlar), boshqa tomondan, o'zlashgan ma'lum bir atamani ikkinchi tildagi mavjud bo'lgan qo'shimchalarni qo'shgan holda yangi atamani yaratish ("yarim tayyor mahsulotlar" deb atasak), uchinchi esa atamalarni yaratishda bir tilda mavjud bo'lgan manbalar va vositalaridan foydalangan holda atama yasash mumkin.

Barcha asosiy zamonaviy ilm-fan sohalari - tibbiyot, kimyo, biologiya, zoologiya, botanika, geologiya, paleontologiya, matematika, fizika, falsafa, ijtimoiy-tarixiyilm-fan, siyosat, san'at va texnika, shu jumladan,

adabiyotshunoslik ham lotin va yunon tillaridan keng foydalanadi. Bu sohalarda qo'llaniladigan terminlarning aksariyati lotin va yunon tillarning so'z birikmalari elementlarini ko'rishingiz mumkin.

## **II BOB. J.A. Kuddonning “Adabiyotshunoslik terminlari va adabiyotshunoslik nazariyasi” izohli lug’atida qo’llanilgan adabiy terminlarning tarkibiy tuzilishi.**

### **2.1. “Adabiyotshunoslik terminlari va adabiyotshunoslik nazariyasi” izohli lug’atining yaratilish tarixi.**

“Adabiyotshunoslik terminlari va adabiyotshunoslik nazariyasi” izohli lug’atida jamlangan atamalarning strukturaviy tahlilini va tasnifini berishdan avvalbu lug’atning muallifi bo’lmish Jon Antoni Kuddonning hayoti va ijodi haqida ma’lumot berishdan boshlasak.

Jon Antoni Bouden Kuddon buyuk ingliz yozuvchisi, akademigi, lug’atshunos va mehnatkash maktab o’qituvchisi sifatida tanilgan olim. Jon Kuddon 2-iyun 1928-yilda Angliyada tavallud topgan. Yozuvchi yoshligi, qanday umr kechirgani va oilasi to’g’risida adabiyotlarda ko’p va to’liq ma’lumotlar yo’q. Ammo ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, Jon Kuddon kambag’al oilada voyaga yetgan va shunga qaramasdan ilmga chanqoq, zehnli bola bo’lib tarbiyalangan. O’quvchilar uni Jek, do’stlari esa Charli deb murojaat qilishgan.

Jon Antoni Kuddon, avvalam bor, yozuvchi sifatida yaxshi tanilgan. Taxminan o’ttiz yoshlarda uning bir nechta romanlari chop etilgan: “The Bride of Battersea”, “A Multitude of Sins”, “Testament of Iscariot”, “The Acts of Darkness”, “The Six Wounds”. Kitobxonlar tomonidan bu asarlar yaxshi kutib olingan va bir nechta yevropa tillariga ham tarjima qilingan. Ammo eng asosiy mashhurlikni Jon Kuddon o’zining “Adabiyotshunoslik terminlari va adabiyotshunoslik nazariyasi” izohli lug’ati orqali qo’lga kiritdi. Deyarli o’n yillik mashaqqatli izlanishlardan so’ng, Kuddon asarini ommaga taqdim etdi.

Bundan tashqari, u “Sport va o’yinlar haqidagi Makmillan lug’ati” (The Macmillan Dictionary of Sport and Games), “The Penguin Book of Ghost Stories”, “The Penguin Book of Horror Stories” kitoblarini ham yozgan. Yozuvchi 1996-yil 12-mart kuni Buyuk Britaniyada vafot etgan.

Charlz Kuddon o'n ikki asar, uchta libretti, beshta roman, ikkitasi sarguzasht asarlar, ikkita lug'at kitoblar, ko'plab qisqa hikoyalar va qissalar muallifi hisoblanadi. Shuningdek, qo'rinchli hikoyalar muallifi, maktab o'qituvchisi, iqtidorli sportchi va, hatto, yoshlik chog'ida fotograf model sifatida faoliyat olib borgan. 1996-yil bahorida iqtidorli yozuvchi lug'atshunos vafot etganidan so'ng, uning ko'plab asarlari dunyo yuzini ko'rdi va mashhurlik olib keldi. Ularning orasida eng saralari “Owl’s Watchsong” (1960) (uning Turkiyaga bo'lgan sayohatidagi voqealarga asoslangan), “Sport va mashg’ulotlar lug’ati”(“Dictionary of Sport and Games”) (1980) va “Adabiyotshunoslik nazariyasi va adabiyotshunoslik terminlari lug’ati”(“Dictionary of Literary terms and Literary theory”) (1976), yozuvchi bu lug’atning to'rtinchisi nashri uchun tayyorgarlik ko'rgan edi, ammo o'limi sababli yakunlay olmadi.

Uning adabiy asarlarining soni va sifati yozuvchining yoqimli hazil tuyg'usi va nafisligi bilan uyg'unlashgan holda yozuvchining yodgorligi bo'lib saqlanib qoldi. Lug'atining ushbu yangi nashri keltirilgan tahrirda eng ilg'or va sara lug'atlar qatorida bo'lgan; yangi yozuvlarni kiritish va mavjud bo'lgan tuzatishlarni kiritish vazifasi ko'p yillar davomida Charlz va uning lug'ati yozuvchi va lug'atshunoslar uchun turtki bo'ldi va yozuvchilarni uyg'otdi, ular lug'atlarni takomillashtirdi va qo'shimchalar kiritshdi.

Lug’atning to'rtinchi nashr loyihasi ko'chirilishga tayyor edi va quyidagi yozuvchilarning yordami katta ahamiyatga ega edi: Anna Kuddon, Jan Guder, Erik Grifis, Kevin Jekson, Jon Kenyon, Jon Kerigan va Ato Quayson kerakli bo'limlarni jamlashdi va kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlashdi. Lug’atning yakunlamay qolgan uchta bo'limi tugatildi, ya'ni, Jon Lenard “Rhyme”, “Punctuation” va “Crime function” nomli qismlarini nihoyasiga

yetkazgan, Kliv Vilmer “Verse novel”, “Dramatic monologue”, “Sonnet cycle” va ko'plab qisqa hikoyalarni yozib tugatgan va Anna Genri “Ellipsis” nomli bo'limni yozgan. “Men, Anna Kuddon, Charlzning beva xotiniga doimiy ravishda dalda bergani uchun alohida minnatdorchilik bildirmoqchiman va Kliv Vilmerga lug'atga bo'lgan qiziqish va g'ayrati uchun ham tashakkur bildirmoqchiman”<sup>17</sup>, - degan edi Charlz Kuddonning do'sti S.E Person.

Odatdagidek, lug'atga biror yangilik kiritilayotganida, eng boshlang'ich asosiy muammolardan biri atamalarning qaysini kiritish lozimligi va qaysi qismini tushirib qoldirish kerakligini hal qilish kerak. Yozuvchi o'zi ta'kidlaganidek, lug'at tuzishda uning oldidagi asosiy muammolardan biri ham aynan shu edi.

Birinchidan, adabiy atamalar aslida qanday paydo bo'lgan va uning asl mohiyatini anglash va qaror qabul qilish oson emas, chunki ko'pchilik standartlar - bu noaniq tasniflardir. Misol uchun, ‘epik’ atamasi turli tasniflarda turlicha, ‘geksametr’ va ‘eleji’ atamalari ham shunga o'xshashdir.

“Qisqa OksfordLug'ati” (“Shorter Oxford Dictionary”)da "adabiy" so'zining asosiy ta'rifi quyidagicha berilgan: "adabiyot - muloyim o'rganish, yoki kitoblar va yozma kompozitsiyalar; yoxud bu turdagi yozma kompozitsiyaga taalluqli qiymatga egauning shakllarining fazilatlarini "ni anglatadi. Agar buni biz nimani nazarda tutganini ko'rsatadigan ish aniq belgi sifatida qabul qilsak, "adabiy" so'z bilan, unday holatda printerlar va kompozitorlar tomonidan ishlatilgan (va juda ko'p) so'zlar haqida nima deyish kerak? Tilshunoslar va grammatika bilan shug'ullanuvchi olimlar foydalanadigan ko'pgina terminlar haqida qanday xulosaga kelish mumkin?”<sup>18</sup>

Bularning ko'pi, aytish mumkinki, barchasi uzviy bog'liqdir, ammo ba'zi holatlarda adabiy va adabiyotga nisbatan juda oz miqdorda. Muallif ko'pgina muhokamalar va bahslardan keyin ushbu masalalar bo'yicha muzokaralar olib borishga qaror qildi va grammatikachilar, filologlar va tilshunoslar

---

<sup>17</sup>J.A Cuddon, Dictionary of Literary terms and Literary theory, Oxford, 2012.

<sup>18</sup>J.A Cuddon, Dictionary of Literary terms and Literary theory, Oxford, 2012.

foydalanadigan bir nechta atamalarini o'zining lug'atiga kiritishga qaror qildi. Shunday qilib, misol tariqasida, u "quarto" va "folio" so'zlarini kiritishga qaror qilgan bo'lsa, lekin "line-block" va "galley" so'zlarini chiqardi.

"Paragraph", "loose" va "periodic sentence" lug'atda mavjud; "Suspense", "declension" esa mavjudemas. "Keneme" va "morpheme" kiritilgan; "diphthong" va "labial" esa kiritilmagan.

Turli tillarda va adabiyotlarda qo'llanilishi, illyustratsiya va misollar orqali taqdim etilishi mumkin, lekin bu ehtimol, ensiklopedikning vazifasini o'z zimmasiga olgandek bo'lar edi va kitobni ancha uzaytirgan bo'lar edi. Ko'pgina holatlarda, ayrim atamalar o'quvchi uchun juda qorong'i (va kam foydalaniladigan) bo'lganligi sababi faqat mutaxassisga qiziqarli bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, Kuddonning harakatlari butun jahon uchun muntazam foydalaniladigan va adolatli taqsimlangan adabiy so'zlarning keng qamrovli lug'atini yaratish, va shubhasiz, bu lug'at bugungi dunyo aqlli kishilarning qiziqishini va e'tiborini jalb etadi, negaki lug'at ularga kerakli va qimmatli ma'lumotlarni beradi. "Agar biror kishi "haiku" yoxud "verso tronco" nima ekanligini bilmasa (yoki unutib yuborgan bo'lsa), yoki qanday qilib ko'k-paypoqlar nomining paydo bo'lgani to'g'risida bilishmasa, menumid qilamanki, bu lug'at ularga asosiy ma'lumot beradi.

Men juda keng qamrovli va adolatli taqsimlangan deyishimning sababi shundaki, har qanday terminologiya bilan bog'liq ish muallifning o'qish va bilimlari bilan cheklangan. Men klassik, Yevropa, slavyan va Yaqin Sharq adabiyotlarini o'rganib, Shimoliy Amerika va Hamdo'stlik davlatlarining adabiyotlari haqida ba'zi bir ma'lumotlarga ega bo'ldim. Lekin mening Sharq adabiyoti va Ispaniyaning, Amerikaning janubiy qismlari haqida ma'lumot cheklangan. Shuning uchun muqarrar ravishda katta bo'shliqlar mavjud".<sup>19</sup>

---

<sup>19</sup>J.A Cuddon, Dictionary of Literary terms and Literary theory, Oxford, 2012.

Terminlarning aksariyati yunon, lotin, ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, rus, arab, yapon, qadimgi fransuz, qadimgi provensal va bir nechta serb, xitoy, fors, turk, uels yoki koreys tillarida ham berilgan.

O'n ikki asosiy toifalar quyidagi kabi farqlanishi mumkin:

1. Texnik atamalar (masalan, *iamb*, *pentameter*, *ottava rima*).
2. Adabiy shakllar (masalan, *sonnet*, *villanelle*, *limerick*, *tanka*, *clerihew*).
3. Janrlar yoki turlar (masalan, *pastoral*, *elegi*, *fabliau*, *Märchen*, *conte*).
4. Texnikalar (masalan, *pivot so'z*, *tenor va transport vositasi*, *kommunikatsiya bid'ati*, *estetik masofa*).
5. Guruhlar, maktablar va harakatlar (masalan, *Pléiade*, *Parnassians*, *PreRaphaelites*, *Spenser School*).
6. Ma'lum iboralar (masalan, *willing suspension of disbelief*, *negative capability*, *discordia concors*, *in medias res*, *quod semper quod ubique*) kufni istalgancha to'xtatib turish, salbiy qobiliyat, diskriminativliklar, medialar, sakkizta sakkizlik).
7. -izmlar (masalan, *realism*, *primitivism*, *Platonism*, *plagiarism*, *structuralism*, *orientalism*).
8. Motiv yoki mavzular (masalan, *ubi sunt*, *carpe diem*, *Faust-tema*, *leitmotif*).
9. Shaxsiyatlar (masalan, *skop*, *jongleur*, *gracioso*, *guslar*).
10. Modu, munosabat va uslublar (masalan, *dolce stil nuovo*, *irony*, *marinizm*, *kulgili*, *sentimental komediya*).
11. Obyektlar / asarlar (masalan, *koranto*, *gologramma*, *qo'lyozma*, *gazeta*, *avtobus*, *kitob*).
12. Atamalar (masalan, *samimiylik*, *yuksak*, *dekorum*).

Ushbu o'n ikki toifadagi adabiy atamalar adolatli qilib taqsimlangan. Ammo biron bir oilaga yoki toifaga tegishli bo'lmagan atamalar ham bor. Quyidagi berilgan atamalarning sinfiy tasniflanishi mushkul:  
*abstract*, *belles lettres*, *brief*, *censorship*, *forgery*, *Freytag's pyramid*, *hamartia*, *inspiration*, *juvenilia*, *Grub Street*, *palindrome*, *quotation titles* va boshqalar.

“Adabiyotshunoslik nazariyasi va adabiyotshunoslik terminlari lug'ati”ning tuzilish rejasi oddiy. Bu alifbo tartibida berilgan va Abbey Theatre atamasidan boshlanadi va zeugma so'zi bilan yakunlanadi.

Har bir atamaga qisqacha ma'lumot beriladi, ta'riflanadi. Yozuvchi ba'zi hollarda, lekin har doim ham emas, atamaning etimologik xususiyati foydali yoki qiziqarli bo'lishi mumkinligini o'ylab, atamaning qisqacha etimologik ma'lumotni taqdim etgan. Bunday ma'lumot juda muhim, ayniqsa agar ma'lum bir atamaning tarixiy ildizi va uning hozirgi kundagi ishlatilish mazmuni o'rtasida farq bo'lsa. Misol uchun, ispancha “estribilo” so'zni olsak. “Chayqalish”, “uzangini yo'qotish” ma'nosini bildiradi. Ammo bu lug'atda ma'no turlicha, ya'ni, xor, oyat va qator (ikki dan to'rt qatorga) ma'nosida berilgan. Bunday qiziqarli misollarni ko'pgina topish mumkin va farqlash uchun qavslar ichida ko'pgina manbalar ko'rsatilgan. Buni sodda tarzda bajarish uchun etimologik tarixni atamalarga ta'rif berayotganda ichida ko'rsatdi. Adabiy terminlar uchun to'liq ma'lumot taqdim etilgan, ya'ni, atamaning tarixi, rivojlanish tarixi va rivojlanishi, shuningdek, diqqatga sazovor misollar bilan boyitilgan. Bibliografiyalar kiritilmagan, buning uchun esa muallif kitobni uchdan bir qismigacha uzaytirishga to'g'ri kelar edi.

Har bir she'riy atamani tasvirlash uchun to'liq namuna berilgan. Masalan, C. S. Lyuisning "Sevgi alegori", "Buyuk zanjir", she'riyatdagi Maod Bodkinning "Archetypal Patterns" she'ri.

Yozuvchi turli xil o'lchovli sxemalarni kiritishni ma'qul ko'rgan bo'lar edi, lekin bu yana kitobni asta-sekin kengaytirgan bo'lardi. Bu eng kamida o'n olti xil tilda jadvallar va sxemalarni kiritishni talab qilgan bo'lar edi. Va, shubhasizki, bunday holda tarjima zarur edi. Shunday qilib, lug'atning ixchamligini va aniqligini ta'minlash maqsadida yozuvchi lug'atning tarkibiy tuzilishini ixcham tarzida saqlab qoldi.

## **2.2. J.A Kuddonning “Adabiyotshunoslik terminlari va adabiyotshunoslik nazariyasi” izohli lug’atida qo’llanilgan adabiy terminlarning tarkibiy tuzilishi**

So'nggi o'n yil ichida tilshunoslar va mutaxassislarning turli xil adabiyot sohalaridagi terminologiya muammolariga bo'lgan qiziqishi tobora o'sib bordi va bu adabiyot fanlarning integratsiyalashuv jarayonlari bo'yicha rivojlangan ilmiy axborot oqimining vujudga kelishiga asos bo'ldi. Terminologiya - ijtimoiy muloqotning eng muhim vositalaridan biri, umuman tilning mavjudligiga katta ta'sir ko'rsatdi. Termin tuzish va yaratish mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida maqsadli qidiruv sifatida ifodalanishi mumkin. Ma'lum bir milliy va xalqaro til yaratilgan ekan, shu tilni kodlanadi, saqlanadi va qayta ishlanadi. Shubhasizki, tillar uchun terminologik ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Terminologiya sohasida termin o'zlashtirish uzoq vaqt davomida o'rganilgan. Shunga qaramasdan, tadqiqotchilarning aksariyati bu masalaning tarixiga e'tibor berishmaydi. Shu sababli ham yangi paydo bo'layotgan terminlarning foydalanish sohasidagi ziddiyatlarga duch kelamiz.

Shuni ta'kidlash kerakki, atamalar har bir tilda bir xil bo'lmaydi, negaki uning paydo bo'lish tarixi, foydalanish sohasi va, albatta, terminlarning yasaliş qonun-qoidalari ham turlicha bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtda ingliz adabiyotshunosligi terminologiyasida yangi terminlarning paydo bo'lishi jarayoni juda sezilarli darajada kuchaygan. Bu nafaqat ingliz tili uchun, balki, ko'plab tillar uchun ham o'ziga xosdir. Til leksikasiga yangi so'zlarning, ya'ni neologizmlarning paydo bo'lish ehtimolligi yuqori. Boshqa tillardan so'z o'zlashtirish neologizm turlaridan biri.

Adabiy atamashunoslik masalalariga murojaat qilishning asosiy sababi adabiy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash uchun adabiyotshunoslimlarning madaniyatlararo muloqotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro hamkorlikka bo'lgan ehtiyojning ortib borishi bilan izohlanadi.

“Termin” kontseptsiyasini ko'p qirralari va termin tizimi shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlariga ko'pgina adabiyotshunos olimlarning ishi bag'ishlangan. Masalan, R.Dudok davrning semantik tuzilishini va uning maxsus matndagi strukturaviy-semantik salohiyatini o'rganib chiqdi, M.Medved esa zamonaviy atamalar tizimining elementi sifatida termin shakllanishining turli qirralarini o'rgandi.

Ingliz adabiy atamashunosligini o'rganib chiqqan olimlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: E. Mishak ingliz adabiy terminologiyasining tizimio'rgangan va chuqur tahlil qilgan, L. Rutikova adabiyot terminologiyasi tizimining va ingliz tili rivojlanishining umumiy tendensiyalarini o'rganib chiqdi, rus va ingliz adabiyotda qo'llanilgan bir komponentli terminlarning morfologik xususiyatlarini o'rgandi. S. Vasileva va T. Kudinovaning dissertatsiya tadqiqotlari mavzusi ingliz tilida ko'p qirrali terminlarni o'rganishga bag'ishlangan.<sup>20</sup>

Adabiy atamalarning paydo bo'lishi murakkab bir hodisa hisoblanadi, XX asrning boshlarida adabiyotning o'ziga xosligi adabiyotshunoslik murakkab integratsiya sohasiga aylantirildi, u bir necha o'nlab bo'lim va yo'nalishlarni birlashtiradi va boshqa sohalarga tegishli bo'lgan terminologiyadan olingan atamalarni qo'llash bilan tavsiflanadi. Adabiyotshunoslik terminologiyasi tizimining elementi adabiy atamadir.

Adabiy terminologiya va uni shakllantirishning asosiy manbalarini quyidagicha tahlil qilish mumkin: bir tomondan, boshqa tillarda keng foydalaniladigan terminlarni tayyor holda boshqa bir tilga o'zlashtirish mumkin (o'zlashgan so'zlar), boshqa tomondan, o'zlashgan ma'lum bir atamani ikkinchi tildagi mavjud bo'lgan qo'shimchalarni qo'shgan holda yangi atamani yaratish

---

<sup>20</sup> В.Н Былинович, О словосочетаниях как единицах терминологии, Минск, 1984.

("yarim tayyor mahsulotlar" deb atasak), uchinchi esa atamalarni yaratishda bir tilda mavjud bo'lgan manbalar va vositalaridan foydalangan holda atama yasash mumkin.

Terminlarni lingvistik jihatdan o'rganish va rivojlanish nuqtai nazaridan quyidagi terminologik guruhlariga ajratilishi mumkin:

- 1) boshqa atamalar tizimidan olingan va ularning asl ma'nosini saqlab qolgan asosiy sodda atamalar (*book, carol, catharsis, ghazal, gieras, idem, icon, kabuki, lauda, operetta, ode, paraphrase, parody, qasidah, pysma, stasimon, sutra, tableau, vernacular*);
- 2) yasama va murakkab atamalar (iboralar) (*Ultra Grupo, trumbling verse, telescoped metaphor, table-talk, sweetness and light, surprise ending, mock-heroic, mezzo-zeugma*);
- 3) turli adabiy terminlardan olingan va birlashgan qo'shma terminlar, ammo semantik jihatdan qisman o'zgargan. Masalan, *Lehrstück* – nemis tilidan olingan bo'lib, didaktik asar ma'nosida qo'llanilgan, ammo keyinchalik siyosat haqida ma'lumot beruvchi asar sifatida ishlatilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan terminlarni quyida berilgan gaplar orqali o'rni aniqlashimiz mumkin:

*He thought he weathered the **table-talk** over the dinner with his future in-laws rather well.*

*He had a talent for writing **parodies**.*

*Judith has become an **icon** in the movie business.*

*There is struggle and disappointment in Brady's life, but rather than pin him and the other characters down in a **tableau** of misery, Ms Zhao honors their essential freedom and understands what is important to them.*

Rus tilshunos olimi S. Grinev-Grinevichning fikriga ko'ra, atamalar termin-so'zlar (bir morfemali, ko'p morfemali) va termin-birikmalar (ikki va undan ortiq o'zakli leksemalar) ga bo'linadi. Ana shu tasnifdan xulosa qilgan holda, adabiyotshunoslik terminlarini, o'z navbatida, quyidagicha guruhlash mumkin : sodda, yasama va qo'shma so'zlar.

Oddiy (sodda) atamalar bir o'zakli so'zlarni o'z ichiga oladi, ularning asoslari o'zgarishsiz qoladi va so'zning asosiy ma'nosini o'z ichiga qamrab oladi. Morfologik qo'shimchalar qo'shilishi mumkin bo'lgan yagona ildiz morfemasidan iborat. Masalan, *leich, lullaby, motif, novel, oxymoron, paean, paradox, paronomasia, pysma, qasidah, rhetoric, rhythm, roman, stanza, sura, syllepsis, synecdoche, yarn, zeugma, epithet, episode, drama, distich, culture, conflict, blazon, ballad, aporia*.

Keyingi guruhga yasama so'zlar kiradi va ularning asosini o'zak va yasovchi qo'shimchalar tashkil etadi. Misol tariqasida, *archaism, association, atticism, autobiography, novelist, barbarism, bibliography, realism, Booktrust, brachiology, breviary, chansonnier, cticism, contextualism, convention, correctness, construction, dualism, edition, epigraphy, arrangement, humanism, inspiration, medievalism*.

Murakkab (qo'shma) atamalar bir necha so'zlardan tashkil iborat bo'lib, bir nechta ildiz morfemalardan tashkil topgan. Masalan, *melic poetry, metrical romance, mirror stage, mock-epic, mixed metaphor, new humanism, newsletters, novel-in-verse, objective correlative, Old Comedy, one-act play, queer theory, roman-feuilleton, suspended rhyme*.

Murakkab adabiy birliklarning tarkibiy qismlari quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) oddiy asoslardan hosil bo'lgan murakkab so'zlar: *table-talk, tall story, tetrameter, roman-fleuve, octameter*;
- b) ham turli o'zaklar qo'shilgan, ham qo'shimcha qo'shilgan murakkab so'zlar: *textual criticism, Romantic period, romantic comedy, rhythmical pause, rhetorical question, ocatsyllabic verse*;
- c) asosi qisqartirilgan o'zaklardan iborat murakkab so'zlar: *nonce-verse, mise-en-page, anti-hero, anti-novel*;
- d) ham leksik jihatdan, ham sintaktik jihatdan o'zgartirilgan va shakllangan murakkab so'zlar: *telescoped metaphor, ten-year test, rising action, theatre-in-the-round, theatre of cruelty, running rhythm, run-on line, mixed metaphor*

Terminlarning gaplarda qo'llanilishiga misollar:


*His story was a **tall story** which was difficult to believe.*

*My friend is an actor with a talent for **romantic comedies**.*

*He advocates collage forms such as the **lyric essay**, **prose poetry**, and the **antinovel**.*

Atamadagi terminologiyani o'rganishning eng samarali usuli morfologik usul bo'lib, (prefiksatsiya va qo'shimchani o'z ichiga olgan fiksatsiya tufayli).–

Ingliz adabiy atamalarni yaratish uchun ishlatiladigan eng samarali qo'shimchalarga quyidagilar kiradi:



-ism: *isochronism, criticism, realism, imperialism, aestheticism, activism, absolutism, annotation, archaism, classicism, romanticism, materialism;*

-ion: *iteration, invention, introduction, inspiration, affectation, connotation, dramatization, edition, fabulation, hypostatization, illusion;*

-(i)ty: *textuality, subjectivity, heteronormativity, homosociality, marginality, modernity, novelty, obscurity, obscenity;*

-ment: *enlightenment, emplotment, commitment, engagement, movement;*

-ance (ence): *accidence, absense, presence, correspondence, decadence;*

-er (or): *amphimacer, best-seller, cantar, spectator, Cavalier, chansonnier, ghost-writer, fourteener, gazetteer, ledger, lexicographer, logographer, narrator, outsider.*

Misol uchun:

*“Avatar” is primarily an action-adventure journey of self-discovery, n the context of **imperialism** and deep ecology.*

*In 1695, Patrick Hume became the first editor of “Paradise Lost”, providing an extensive apparatus of **annotation** and commentary, particularly chasing down allusions.*

*Most Portuguese holidays, festivals and traditions have a Christian origin or **connotation**.*

*This portrayed him as living in poverty, shame and **obscurity**.*

*Due to mismeasurements, many atlases and **gazetteers** listed Raininer as the nation’s highest point well into the 20<sup>th</sup> century.*

*The publicist hangs up after talking to a lawyer who had hired a **ghost-writer** to package his story.*

*Major advances were made in science and philosophy during the period of **Enlightenment** in Europe.*

*There was nothing unusual in the final epistle to indicate why the **correspondence** abruptly ended.*

Ta'kidlash joizki, ingliz tilining an'anaviy va keng qo'llaniladigan qo'shimchalari orasida adabiyotshunoslik terminologiyasida eng yuqori yasovchilik ko'rsatkichini –ion va –ism (yuqorida misollar berilgan) qo'shimchalari tomonidan ko'rsatadi. Shu o'rinda, adabiy atamalarni yasashda qo'llanilgan yasovchi qo'shimchalar orasida kam qo'llanilgan qo'shimchalar esa non-(non-fiction) va neo- (neoclassicism, neo-colonialism)qo'shimchalaridir.

Boshqa tillardan o'zlashgan atamalarda esa aynan ma'lum bir tilning yasovchi qo'shimchalari qo'shilganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan, fransuz va nemis tillaridan qabul qilingan adabiy atamalarning shu tilning qo'shimchalari qo'shilishi orqali yasalgan. Shuningdek, ko'pgina so'zlarda yunon va lotin tillarining maxsus qo'shimchalarini o'zida saqlab qolganini ma'lum. Ayrim hollarda esa turli tillardan o'zlashgan atamaga yangi yasovchi qo'shimcha qo'shilgan va bunday holatni ba'zi olimlar so'z birikmasi deb qabul qilishmoqda.

Bugungi kunda terminlarning yasaliş yo'llari turlicha bo'lganligi sababli, yuqorida berilgan terminlar to'g'risida yakdil fikr yo'q, ya'ni olimlar hanuzgacha ularni turli xil talqin etishmoqda. Terminologiya sohasida faoliyat olib borayotgan olimlarning ba'zilar bunday terminlarni frazeologik birikma sifatida qarashmoqda. K. Averbux birikmali terminlarga quyidagicha ta'rif beradi: "Bu semantik va struktur jihatdan birlashgan va maxsus kasbiy yoki biror sohaga tegishli tushunchani nomlashga xizmat qiladigan ikki va undan ortiq so'zlardir".

Tilshunoslik jihatdan bilamizki, qo'shma murakkab so'zlarni yasash turli yo'llar orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, turli so'z turkumlarini bir-biriga qo'shish orqali yoxud ularni kerakli qo'shimchalar yordamida birlashtirishimiz mumkin (1-grafik). Bu qoida atamalar uchun ham mos. Misol uchun,



(1-grafik)

OT + OT (N + N): Tudor period, Unity Theatre, university wits, war literature, pillow book, media studies, Manchester School, love poetry, jazz poetry;

SIFAT + OT (ADJ + N): triple rhyme, Ultro Grupo, variable syllable, poetic prose, personal criticism, open stage, magic realism, long syllable, light comedy, Juvenalian satire;

OT + KO'MAKCHI + OT (N + Prep + N): tribe of Ben, Union of Soviet Writers, point of attack, novel of sensibility, novel-in-verse, man of letters, literature of terror;

SIFATDOSH + OT (Participle + N): turning point, unstressed rhyme, well-made play, mixed metaphor, lost generation, Living Newspapers, involuted novel, interlaced rhyme, initiating action;

OT + HARAKAT NOMI (N + Gerund): log-rolling, line ending, light ending, feminine ending.

*I find the idea of writing a **novel-in-verse** to be daunting.*

In literature, the **Lost Generation** refers to a group of writers and poets who were men and women of this period.

This is political **log-rolling** disguised as public necessity.

The **University Wits** include Christopher Marlowe, Robert Greene, and Thomas Nashe (all graduates of Cambridge), as well as Thomas Lodge and George Peele.

“A Modest Proposal” is Swift’s example of **Juvelian satire**.

**Open stage**, also called thrust stage or platform stage, theatrical stage without a proscenium, projecting into the audience and surrounded on three sides by the audience.

**Novel of sensibility** is a popular 18<sup>th</sup> century novelistic genre. **Novels of sensibility** feature protagonists who are highly sensitive and emotional.

Bunga qo’shimcha qilgan holda aytish mumkinki, ingliz adabiy terminologiyasida uch tarkibdan iborat terminlar ham mavjud. Masalan, *one-act play*, *novel-in-verse*, *mise-en-scène*, *middle-brow nove*, *point of attack*, *novel of sensibility*, *fancy and imagination*, *end-stopped line*.

J.AKuddonning

“Adabiyotshunoslikterminlarivaadabiyotshunosliknazariyasi”

nomliizohlilug’atidato’rtminggayaqinadabiyatamalarberilgan.

Tadqiqotimiznatijasidao’rganilganuch

ming

atamalarningengko’pqismini qo’shmaatamalar tashkiletishianiqlandi.


Bu

natijadan

ma’lumki,

“Adabiyotshunoslikterminlarivaadabiyotshunosliknazariyasi” lug’atida ko’pgina adabiy atamalar turli o’zaklarni bir-biriga qo’shish orqali yasalgan va atamalarni yasashda eng samarali usuli bu –morfologik usul, aniq qilib aytganda qo’shma atamalar yasash. Ikkinchi o’rinda esa yasovchi qo’shimchalar yordamida yasalgan atamalar joy olgan. Keyingi o’rinda esa oddiy (tub) atamalar, ya’ni hech qanday qo’shimchalarsiz, faqat bir asosdan tashkil topgan so’zlardir.

Yuqorida olingan natijalarni S. Grinev-Grinevich tadbiq etgan klassifikatsiyaga ko'ra terminlarni guruhlasak, doira grafik quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.



(2-grafik)

Tadqiqot natijalariga ko'ra va yuqorida berilgan 2-grafikka asoslangan holda aytishimiz mumkinki, "Adabiyotshunoslik terminlar va adabiyotshunoslik nazariyasi" lug'atida o'rganilgan uch ming adabiy atamalarning asosiy qismini qo'shma atamalar – taxminan 1400 atamalar, ya'ni 47%; 900 atama yasovchi qo'shimchalar yordamida yasalgan atamalardir (30%) hamda 390da yoki tub

atamalar 23%ni tashkil etdi, ya'ni umumiy taxminan 700 atama yasovchi qo'shimchalarsiz va bir o'zakdan tashkil topgan.

## **XULOSA**

Shubhasizki, terminologiya bugungi kunda jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan soha hisoblanadi. Tilning leksemalarga boyish terminologiyaga ham uzviy bog'liq. Ta'kidlaganimizdek, termin lotincha – terminus so'zdan olingan bo'lib, chek, chegara degan ma'nolarni ifodalaydi hamda termin – fan, texnika yoki kas-hunarning biror sohasiga xos b'lgan muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasidir. Terminlar jamlanmasi esa terminologiyani tashkil etadi va o'z navbatida terminologiya terminlarning ma'no mazmuni va qaysi sohaga tegishligiga ko'ra guruhlarga bo'linadi. Terminologiya - ijtimoiy muloqotning eng muhim vositalaridan biri, umuman tilning mavjudligiga katta ta'sir ko'rsatdi. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan bo'lib kelgan. Shu o'rinda terminologiya tarixi va rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan olimlarni sanab o'tsak: Eugen Vuster, A.V. Kalinin, R. Doniyorov, E. Drozen, G.O. Vinokur, V.V. Vinogradov, A.A. Reformatsky, V.G. Gak va, ayniqsa, D.S. Lotte tomonidan terminlarga qo'yiladigan talablar ishlab chiqilgan. Bu talablar quyidagilardir: tizimlilik, konkretga bog'liq emaslik, qisqalik, bir ma'nolilik, aniqlilik, oddiylik, tushunarlilik, tadbiq etilganlik darajasi va boshqalar.

Shuningdek, adabiyotshunoslik terminlarining ko'lami va mazmuni kengayib bormoqda. Adabiyotni o'rganishimizning asosiy sababi esa uning butun insoniyat madaniyati bilan chambarchas bog'lanib ketganidir. Adabiyoti taraqqiy topgan har qanday xalqning yutuqlari tezda butun jahon miqyosiga chiqadi, butun dunyo mamlakatlari va xalqlari tomonidan keng miqyosda qabul etiladi. Adabiyot tomonidan yaxshi qurollangan shaxs esa komil inson sifatida

qabul qilinadi. Adabiyotshunoslik terminlari adabiyotni rivojlantiribgina qolmay, balki o'quvchilarga adabiyotni yaxshi tushunishlariga yordam beradi va o'qishdan zavq olishlari uchun yanada chuqur ma'no beradi. Shuningdek, adabiy terminlar o'quvchilarning tasavvurlarini, belgi va sahnalarni yanada aniqroq ko'rsatishga, undashga ko'maklashadi. J.A. Kuddonning "Adabiyotshunoslik atamaları va adabiyotshunoslik nazariyasi" lug'ati esa bu borada bizga foydali va kerakli qo'llanma vazifasini bajaradi.

Bitiruv malakaviy ishimiz kirish qismi, ikki bob, to'rt bo'limdan va xulosa qismlaridan tashkil topgan. Kirish qismida bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligi, ishning maqsadi va ahamiyati to'g'risida to'xtalib o'tildi. Birinchi bob birinchi bo'limida termin, terminologiya, lug'atshunoslik tushunchalari haqida ma'lumotlar berildi; ikkinchi bo'limda esa adabiy terminlarning xususiyatlari tog'risidagi ma'lumotlar jamlandi. Ikkinchi bob esa amaliy qism hisoblanib, birinchi bo'limda J.A. Kuddonning hayoti va ijodiga taalluqli ma'lumotlar berilgan va ikkinchi bo'limda J.A. Kuddonning "Adabiyotshunoslik atamaları va adabiyotshunoslik nazariyasi" lug'ati jamlangan adabiy atamalar ustida izlanishlar olib borildi. Adabiyotshunoslik atamalarining morfologik tarkibiy tuzilishi o'rganildi. Turli olimlar tomonidan berilgan turlicha ta'rif va tasniflarga ko'ra yasaliş guruhlarga ajratildi va misollar keltirildi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, J.A. Kuddonning "Adabiyotshunoslik atamaları va adabiyotshunoslik nazariyasi" lug'atida qo'llanilgan uch ming adabiy atamalarning asosiy qismini morfologik jihatdan tuzilgan qo'shma so'zlar egallagan, ya'ni 47%; yasovchi qo'shimchalar yordamida yasalgan atamalar esa umumiy atamalar sonining 30% ni tashkil etdi; sodda yoki tub atamalar esa umumiy atamalar sonining 23% ni egalladi.

Demak, adabiyotshunoslik terminlarini yasashda eng samarali usul bu – qo'shma atama yasash hisoblanadi, ya'ni ikki va undan ortiq o'zakni (ildizni) bir-biriga birlashtirish orqali yasash mumkin. Termin yasashda ona tili imkoniyatlaridan foydalanish eng muqobil va to'g'ri yo'l sanaladi. Aks holda, har qanday termin tizimi umumadabiy til me'yorlaridan uzoqlashadi va pirovard

natijada nafaqat oddiy o'quvchiga, shuningdek, mutaxassislarga ham tushunarsiz bo'lib qoladi, tilning tozaligi tamoyiliga jiddiy putuz yetkazadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sh.M Mirziyoyev, "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz", Toshkent, O'zbekiston, 2009.
2. I.A Karimov, "Vatanimizni bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz", Toshkent, 2009.
3. H.Homidiy, Sh.Abdullayeva, S.Ibrohimova, "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati", Toshkent, O'qituvchi, 1979.
4. L.Dehqonova, Sh.Xudoyqulova, "Terminologiya va davlat tilida ish yuritish asoslari", Guliston, 2013.
5. T.Boboyev, "Adabiyotshunoslik asoslari", O'zbekiston, 2002.
6. Baldick Chris. The Concise Oxford Dictionary of Literary terms. - Oxford: Oxford University Press, 2001.
7. J.A Cuddon, Dictionary of Literary terms and Literary theory, Oxford, 2012.
8. E.G Petrosyants, Linguistical terminology: structure, semantics, derivation: on English material, Pyatigors, 2004.
9. Galperin I. R. Stylistics. – Moscow: Higher school publishing house, 1971.
10. M.U Saidova, The problem of studying literary terms on figurative language, Buxoro.
11. Merriam Webster Encyclopedia of Literature. – Merriam Webster & Britannica, 1995.
12. Tom McArthur, The Concise Oxford Companion to the English Language, Oxford, 1992.
13. Y.M Skrebnev, Fundamentals of English Stylistics. – Moscow, 1994.

14. В.А Татаринов, Теория терминоведения. Теория термина: история и современное состояние, Москва, 1996.
15. В.М Лейчик, Оптимальная длина и оптимальная структура термина, Москва, 1981.
16. В.Н Былинович, О словосочетаниях как единицах терминологии, Минск, 1984.

#### **INTERNET SAYTLAR**

17. <http://www.literarylives.com>
18. <http://www.google.com>
19. <http://www.writershop.com>
20. <http://www.wikipedia.com>